

OILADA SOG'LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISH

Atajonova Sayyoraxon Karimovna

Andijon viloyati Marhamat tumanidagi 2-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqola – bugungi kunda dolzarb bo’lgan tarbiya jarayoni, sog’lom psixologik muhit , jamiyat va shaxs rivojlanish tahlili, tarbiya jarayonida ko’p kuzatilayotgan oilalardagi muammolarini o’rganishga mo’ljallangan.

Kalit so’zlar: Sog’lom psixologik muhit, zamonaviy jamiyat, zamonaviy shaxs, noqulay psixologik muhit , ta’lim, axborotlashuv muammolari .

Farzand tarbiyasi juda murakkab va mas’uliyatli vazifa. Oila hamda jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Oilada qulay psixologik muhitni yaratish uchun har bir a’zo bir-birlarini sevish, hurmat qilish va ishonishlari kerak. Shuningdek, qanday qilib vaqtini qiyin dam olish, yordam berish, yordam berish va saqlash. Bu nafaqat oila ichidagi uyg'unlikni keltirib chiqaradi, balki nizolarning og’irligini va stressli holatni ham kamaytiradi. Psixologik muhit nafaqat barcha oila a’zolarining jismoniy holatiga ham ta’sir qilishi mumkin. Oila – kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o’zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. «Jamiyat» va «oila» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo‘lmasligi hamda o‘z navbatida oilaning ma’lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko‘rinadiU asosan hayot va sog’liq sifatiga ta’sir qiladigan ba’zi hissiy muhit yaratilgan. Bu, shuningdek, har qanday muhim qarorlar va shaxsiy o’sishni amalga oshirishda eng muhim omillardan biridir.Oilada ikki xil psixologik iqlim mavjud - bu qulay va ijobjiy emas . Buning bir necha sabablari bor: ota-onalar, otaonalarning bolalarga dushmanlik va oilaviy kasalliklarning yashash sharoitlari tufayli yetarli emas. Kichkintoyning kelishi bilan, barcha sevgi, iliqlik va faqat unga yo’naltiriladi. Va shu paytdan boshlab yangi tug'ilgan chaqaloq shakllana boshlaydi va oilaviy doiralarga xos bo’lgan fazilatlar boshlanadi. Bolajon xalqmiz. Topgantutganimizni farzandlarimizdan ayamaymiz. Ularning sog’lom, ma’naviyatli, oqil va dono bo’lib ulg’ayishi, jamiyatga naf keltiradigan insonlar bo’lishi uchun yelibyuguramiz. Bu xalqimizga xos fazilatdir. Farzandga g’amxo’rlik qilish, uning hech kimdan kam bo’lmay ulg’ayishi uchun harakat qilishning nimasi yomon. To’g’riku-ya, ammo ba’zi oilalarda bu g’am-xo’rlik biryoqlama, ya’ni faqat moddiy ta’midotiga ko’proq e’tibor qaratilishi bilan namoyon bo’lmoqda. Eng yomoni esa, ayrim ota-onalar oiladagi to’kislik, ta’midot a’lo darajada ekanidan xotirjam yurishadi, bolamning usti but, qorni to’q, ta’moti risoladagidek deb, tarbiyaning ma’naviy

jihatlariga e'tibor qaratmaydilar. Vaholanki, bola tarbiyasida oiladagi ma'naviy muhitning o'rni ko'proq ahamiyat kasb etadi. Buni dars jarayonida juda ko'p kuzatganman. Saboq berayotgan o'quvchilarimning ota-onalari turfa kasb egalari. Bu tabiiy, biroq ularning ma'naviy dunyoqarashlari ham turfa ekanligi meni o'ylantiradi. Suhbat jarayonida shuni anglab yetamanki, ular tarbiyada o'qituvchi muhim rol o'ynaydi, biz ota-onalar farzandimizning kiyimini, kitobini, daftar-qalamini ta'minlab tursak, bas, deya fikrlashadi. Bunday ota-onalarga o'zingiz oxirgi marta qaysi kitobni o'qidingiz, bolangizning dars tayyorlashini qachon nazorat qilib, ko'maklashgansiz, unga qanday ibratli hikoyatlarni aytib bergansiz, qanday kitoblarni olib berayapsiz, deya so'rashning o'zi ortiqcha. To'g'ri, bola maktabda ta'lim olish bilan birga tarbiya ham ko'radi. Ilm dargohlarida yosh avlod har tomonlama mukammal bilim va salohiyat egasi bo'lib ulg'ayishi lozim. Bu borada davlatimiz tomonidan katta g'amxo'rlik ko'rsatilmoqda. Zamonaviy uslubda qurilgan, yuksak texnologiyalar bilan jihozlangan mакtablar, akademik litsey ular ixtiyorida. Ilm dargohlarida o'g'il-qizlar uchun barcha sharoitlar muhayyo qilingan. Bundan, albatta, har bir ota-onaning ko'ngli to'q, lekin unutmaslik kerakki, tarbiyada ota-onaning ham, o'qituvchi-murabbiyning ham o'z o'rni bor. Yuqorida biz farzandga g'amxo'rlik haqida so'z ochgandik. Ota-onalar oila davrasida farzandiga «*sen hech xavotir olma, uy-joy, avtomobil, nima kerak bo'lsa, mana, bizning zimmamizda*» desa, bu aslo g'amxo'rlik emas. Yoki ba'zi ota-onalarni olaylik, ular farzandi bilan gaplashishga umuman vaqt topisha olmaydi. Bola ulardan mehr kutsa, qo'liga pul tutqazishadi. Shumi, g'amxo'rlik? O'zim guvoh bo'lgan bir voqeа haqida aytmoqchiman. Yosh hamkasbim bir kuni mendan maslahat so'radi:

«Ustoz, bir o'quvchim darsga doim xalaqit berayapti. Yaxshi gapirib ham ko'rdim, tanbeh ham berdim foydasi bo'lindi. Otasini chaqirtirsam, vaqt yo'q ekan, haydovchisini jo'natibdi. Otaning bunday e'tiborsizligidan juda ranjidim. Oxiri o'zi ham keldi. U mendan anchagina «achchiq» gaplarni eshitsa-da nopisandlik va balandparvozlik bilan e'tibor ham bermadi». Hamkasbimning gaplarini eshitib Xoja Samandar Termiziyning bir ibratli hikmati yodimga tushdi: **«Har kim agar yoshligidan beadab kishilar ichida o'sib ulg'aysa, katta bo'lgach uning vujudiga o'rnashib oladigan badfe'llik illatini chiqarib tashlash qiyin bo'ladi».** Otaning bu qilmishini kuzatib turgan farzandning ertaga bunday nomaqbulchilikka qo'l urmasligi dargumon. Mana shunday holatlardan biri mening ish faoliyatimda ham sodir bo'ldi. Sinf rahbari onasiga qo'ng'iroq qilsa: «Adabiyot o'qituvchisi qattiqko'lligi uchun uning darsi bor kunlari farzandim qo'rqib bormayapti» degan javobni aytibdi. Mana, sizga ba'zi ota-onalarimizning ma'naviy saviyasi. Oxirigacha so'rab-surishtirmay, bilmay-netmay, o'quvchimning yolg'on gaplariga ishonib, uning ko'ngliga benihoya katta e'tibor berayotgan bunday ota-onalar o'z farzandiga yomonlik qilayotganini anglab yetmaydi. Yana bir gap. Bolalar «iPhone», «Samsung Galaxy», «Lenovo», LG, HTC

rusumidagi mobil telefonlardan foydalanayotganini ko'z-ko'z qilayotganini ko'rib kishi chuqur o'yga cho'madi. Otaonalar ularga qimmatbaho telefonlarni olib bergenlar, ammo ularning ko'pchiligi bunday telefonlardan foydalanishni o'zları bilmaydilar-ku! Bola bu telefonlardan qay maqsadda foydalanayapti, uning maxfiy kodlangan papkalarida nimalar saqlanayapti, ijtimoiy tarmoqlarda kimlar bilan do'st bo'layapti, internetda qanday saytlarga tashrif buyurayapti – bularning barchasini nazorat qilish uchun ota-onalarning o'sha texnologiyani farzandidan ko'ra yaxshiroq tushuna olishi kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiy etgani sari ulardan foydalanish, tushunishda farzandlarimizdan ortda qolsak, bilingki, ularni hen qachon nazorat qila olmaymiz.

Ko'pgina ota-onalar farzandlarining uyali aloqa vositasidan foydalanishlarini xavfsizlik nuqtayi nazaridan deya izohlaydilaru undan dars vaqtida foydalanish mumkin emasligini uqtirishni unutib qo'yadilar. Aytmoqchimanki, bolaga g'amxo'rlik qilaman deb, uning ma'naviy dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilmaslik kerak. Ertaga u nainki ota-onasiga, balki jamiyat taraqqiyotiga yomon ta'sir etuvchi salbiy illatlarga ko'l urishi mumkin. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun, avvalo, bolaning yurish-turishini kuzatib, unga to'g'ri tushuntirish va yo'nalishlar berish, farzandining ta'lim olishiga e'tibor qaratib, ilm-fan, ijodga mehr uyg'otish, tarbiyasi yo'lida maktab va mahalla bilan mustahkam hamkorlik o'rnatish talab etiladi. Eng muhimi, bolaning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishiga yaqindan ko'maklashish lozim. Uning qiziqishlarini e'tiborga olgan holda, turli fan va sport to'garaklariga qatnashtirish, imkon bo'lsa, musiqa va san'atga oshno qilish maqsadga muvofiq. Bu yoshlarning ongini egallahsga urinayotgan turli g'arazli kuchlarga qarshi eng yaxshi qalqon vazifasini o'taydi. Yosh niholga istagancha shakl berish mumkin bo'lganidek, bolada yoshligidan qiziqishni uyg'otish ham unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Ota-onalar shu orqali farzandlari va ularning kelajagi uchun kata g'amxo'rlik qilgan bo'ladilar. Tarbiya borasida qilingan bir xatoning ta'siri odamni bir umr ta'qib etishi mumkin. O'qituvchisiga hurmatsizlik bilan gapirayotgan bola ertaga ota-onasiga shu munosabatni qilmasligiga kim kafolat beradi? Bu vazifa yurt taraqqiyoti, mamlakat kelajagiga daxldor ekanini sira yoddan chiqarmaslik kerak. Tarbiyada mana shu ikki olam uyg'unligi ta'minlansa, katta muvaffaqiyatlarga erishilishi, bu orqali davlatga ham foyda keltirishi ayni haqiqat.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G'oziyev E. G'. Rivojlanish psixologiyasi.-T.:Noshir.2010.
 2. Maxsudova Z. Psixik taraqqiyot diagnostikasi. T.:TDPU,2004.
 3. Radugina A. A. Pedagogika I psixologiya.M., 2007.
 4. Shermuhammedov S, Ochildiyev A Madaniyat va sivilizatsiya. Farg'onasi:2000
- B.37